



O'zbekiston Respublikasi  
Sog'likni saqlash  
vazirligi



# Sil haqida nimalarni bilish kerak?

Umumiy amaliyot shifokorlari uchun  
axborot materiallari

## **Minnatdorchilik bildirish**


Ushbu materialni chop ettirish OITS, sil va bezgakka qarshi kurash bo'yicha Global Fond tomonidan moliyalashtirilgan TB-REP loyihasi doirasida taqdim etilgan grand asosida hamda PAS Markazi asosiy restipient sifatida amalga oshirishi bilan imkoniyatli b o'ldi. Mazkur nashrda ifoda etilgan muallif (mualliflar) ning fikrlari GF, Asosiy retsipient va TB-REP loyihasining boshqa hamkorlari fikrlari bilan mos kelmasligi mumkin.

Ushbu hujjatni ishlab chiqishda "INTILISH" NNT RATM xodimlari Nikitina T.S., Subotin D.Yu., Abu Shixada Yu.O. tomonidan texnik yordam ko'rsatildi.

Ushbu hujjatni ishlab chiqishda, uning yaratilishining har xil bosqichlarida quyidagilar ishtirok etdilar: RIFPIATM direktori Parpieva N.N., Sog'liqni Saqlash Vazirligining DPTYoBB bosh mutaxassisi Axmadjonov A.K., sil, OITS, sariq kasal bo'yicha birlashtirilgan dasturning milliy mutaxassislari Gadoev J. va Ibatov X.B., RIFPIATMning davolash qismi bo'yicha bosh shifokori o'rinbosari Belotserkovets V.G., Toshkent SHSQD bosh shifokori Kalandarova L.N., "Project HOPE NT – The People to People Health Foundation, Inc." Filiali tomonidan amalga oshiriluvchi O'zbekistondagi sil bilan kurashish bo'yicha USAID dasturi xodimlari Volik V., Chichinadze D., Kurbanova R., Ulmasova D., O'zbekiston Ayollar qo'mitasi raising o'rinbosari Nurmatova Sh.O.

## Sil - bu nima?

Sil – bu sil bakteriyalarini organizmga kirib borishi bilan rivojlanuvchi yuqumli kasallik. Bunda, kasallik bilan shikastlanuvchi asosiy organ – o'pka.



Kamdan-kam hollarda miya va uning qobig'i sili, suyaklar, buyraklar, jinsiy a'zolar, ko'z, ichak va boshqa organlarning sili bo'lishi mumkin.

Sil bilan og'rigan 75% bemorlarning eng ko'pi mehnatga qobiliyatli va reproduktiv 20-40 yoshdagi insonlarni tashkil etadi.

Agar silni aniqlash va davolash nazorat ostida va uzluksiz amalga oshirilishi to'g'ri tashkillashtirilgan bo'lsa, bemorlar tez sog'ayadilar. Hozirgi kunda sil kasalligining deyarli ko'pchilik hollarini davolash mumkinligi isbotlangan.

***Sil – bu sil bakteriyalarini organizmga kirib borishi bilan rivojlanuvchi yuqumli kasallik. Bunda, kasallik bilan shikastlanuvchi asosiy organ – o'pkadir.***

## Sil qo'zg'atuvchisi

Kasallik qo'zg'atuvchisi Kox tayoqchasi bo'lib, u o'z nomini 1882 yili kashf qilgan nemis olimi Robert Kox sharafiga olgan. Tayoqchanning xossasi shundaki, u juda ham sekin bo'linadi – agar oddiy bakteriyaga ko'payish uchun kamida 30 daqiqa zarur bo'lsa, Kox tayoqchasi esa 15 soatdan 18 soatgacha ko'payadi, bu uni tekshirilish vaqtini sezilarli darajada uzaytiradi.

Silning mikobakteriyasi eng “ekstremal” sharoitlarda – sovuqda, issiqda, qorda omon qolish qobiliyatiga ega, shuning uchun sil har xil iqlim sharoitlarida rivojlanishi mumkin. Tayoqcha yorug'lik va namlikka, hamda ko'pgina kimyoviy moddalarning ta'siriga bardoshli. Bu SB (sil bakteriyasi) qo'zg'atuvchisining tashqi muhitda uzoq vaqt yashab qolishini ta'minlaydi.



Bemorning balg'amida, hattoki qurib qolganida ham, tayoqcha o'zining yashash qobiliyatini saqlab qoladi. Uning ko'payishi uchun eng qulay sharoitlar – namlik, qorong'ulik va 30 dan 40 darajagacha harorat. Ko'cha changida mikobakteriya o'zining yashab qolish qobiliyatini


taxminan 10 kun saqlab qoladi. Ammo tayoqcha ultrafiolet nurlarga sezgir – ularning ta'siri ostida sil qo'zg'atuvchisi bir necha daqiqalardan so'ng nobud bo'ladi. To'g'ri quyosh nurlari ta'siri ostida mikobakteriya yarim soat davomida nobud bo'ladi.

***Kasallik qo'zg'atuvchisi Kox tayoqchasi bo'lib, u o'z nomini 1882 yili kashf qilgan olim sharafiga olgan. Tayoqcha eng "ekstremal" sharoitlarda yashab qolishi mumkin, u ko'pgina kimyoviy moddalarning ta'siriga bardoshli. Bu sil qo'zg'atuvchisining tashqi muhitda uzoq vaqt yashab qolishini ta'minlaydi.***

## Sil qanday yo'l bilan yuqadi?

Sil bakteriyalari havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Ular sil bilan kasallangan insonlar organizmida ko'payadi. Bunda sil uchun xos bo'lgan yallig'lanish paydo bo'ladi, shundan so'ng esa to'qimaning emirilishi ham vujudga keladi, kavak deb nomlanuvchi bo'shliqlar shakllanadi, ularning ichida millionlab sil bakteriyalari mavjuddir. Ulardan yo'talganda, aksa urganda, gaplashganda sil bakteriyalari atrofdagi havoga ajralib chiqadi.

### Havo-tomchi yo'li bilan yuqish



Sil bakteriyalari havoda ko'p vaqt davomida mavjud bo'lishi mumkin. Agar silning ochiq (yuqumli) shakli bilan og'rigan bemor uzoq vaqt davomida yomon shamollatiluvchi xonada (xonadonda, ishchi xonada, kasalxona palatasida,

qamoqxona kamerasida) o'tkazsa, bu havoda aylanib yurgan bakteriyalar shunchalik ko'payib ketadiki, ular bilan boshqa atrofdagi insonlar nafas olishni boshlaydi. Bu sil bilan zararlanishning (yuqtirishning) havo-tomchi deb nomlanuvchi asosiy yo'li hisoblanadi.

Shuning uchun sil bakteriyalari bilan zararlanishdan hech kim himoyalangan, axir havo hamma insonlar uchun yagona hisoblanadi.

Sil nasldan naslga o'tmaydi.

***Sil tayoqchasi bemor insonning yo'talganida, uning aksirganida va suhbatlashganida havo-tomchi yo'li bilan yuqadi. Nafaqat yo'tal, balg'am, hatto chang ham xavfli. Quyosh nuri tushmaydigan nam joylarda sil qo'zg'atuvchisi oylab yashashi mumkin. Sil nasldan naslga o'tmaydi.***

## Yuqish qanday amalga oshadi?

Sil bilan har qanday yoshda zararlanish mumkin, ammo bu ayniqsa yosh bolalar va organizmi kuchsizlangan katta yoshdagi insonlar uchun xavfli. Agar yon-atrofdagi zararlangan inson bo'lsa, kasallanish xavfi yuqoriroq bo'ladi, ayniqsa uzoq vaqt davomida yopiq yoki yomon shamollatiluvchi xonalarda bo'lsa.

Organizmning himoyalash kuchlari yaxshi bo'lgan vaziyatda kasallangan bemorlar bilan aloqalar uzoq vaqt davom etmasa insonning o'pkasiga tushib qolgan sil bakteriyalari organizmning immun hujayralari bilan yo'q qilinadi va kasallik rivojlanmaydi.

Sil bilan kasallangan inson, qachonki u bakteriyalarni tashqariga ajratib chiqarsa, infeksiya manbai bo'lib qolishini bilish muhimdir. Agar bemor davolash muolajalarini boshlagan va davolanishni



ambulator davom ettirayotgan bo'lsa – u zararli emas.

Agar inson sog'lom, me'yordagi yashash sharoitlarida hayot kechirsa, yaxshi ovqatlanisa – sil bilan kasallanish xavfi sezilarli darajada kamayadi.

***Agar bemor davolanish kursini boshlagan va davolashni ambulator davom ettirayotgan bo'lsa –u zararli emas.***

## Sil profilaktikasi

Sil bilan kasallanishni oldini olish, davolashga qaraganda osonroq. Shuning uchun, har bir inson uning oldini olish choralarini bilishi kerak.

Sil profilaktikasida bolalarni BTSJ vaktsinasi bilan immunizatsiyalash eng muhim rolni o'ynaydi. Tuberkulin sinamasini qo'llash bilan profilaktik tekshiruvlar: Mantu sinamasini qo'yish, flyuorografik tekshiruvlar, kasallikni erta bosqichlarida aniqlash imkonini beradi.



Agar organizmning himoya kuchlarini susaytiruvchi omillarni chetlab o'tilsa: ovqatlanish, mehnat, dam olish tartibiga rioya qilinsa, ko'proq toza havoda bo'lib, chekmaslik, alkogolga ruju qo'ymaslik, xonadagi tozalikni saqlab, shaxsiy idishlardan, gigiena vositalaridan foydalanilsa, o'zingizni va atrofdagilarni sil bilan zararlanishdan himoyalashingiz mumkin. Oilada sil bilan kasallanganlar aniqlanganda

sinchkovlik bilan shifokorning tavsiyalariga rioya qilish lozim

Kasallanishni erta aniqlash maqsadida har yilgi asosda flyuorografik tekshirishdan o'tish tavsiya qilinadi.

Silni o'z vaqtida aniqlash, davolash va tartib bo'yicha shifokorning tavsiyalarini aniq bajarish, davolasa bo'ladigan kasallik ekanligini yodda saqlash muhim. Qanchalik kasallik barvaqt aniqlansa, kasalning organizmiga shunchalik kam shikastlanishlar etkaziladi. Qanchalik u tezroq va to'laroq davolansa, shunchalik atrofdagi insonlarga infeksiyani tarqatib yuborish xavfi kamroq bo'ladi.

Silning oldini olish uchun har bir inson quyidagilarni bilishi kerak:

- Sport bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini olib borishi.
- To'g'ri ovqatlanishi – sog'lom, vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishi.
- Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya etishi.
- Alkogol, chekish va har qanday toksik moddalarni iste'mol qilishni bekor qilishi.

***Kasallanishni erta aniqlash maqsadida har yilgi asosda flyuorografik tekshirishdan o'tish tavsiya qilinadi.***

## **Kasallik qanday rivojlanadi?**

O'pka to'qimasi sil bakteriyalarining ko'payishi uchun qulay muhitdir. Sil bakteriyalari o'pkalarga tushganda ko'payishni boshlaydi va yallig'lanish paydo bo'ladi. O'pkalarda do'ngliklar paydo bo'lib, ularning emirilishi sodir bo'ladi va tarkibidagilar nafas olish yo'llariga tushib qoladi. Shu tarzda o'z tarkibida sil bakteriyalariga ega balg'am paydo bo'ladi va shu bilan yuqtirish va atrofdagi insonlarning kasallanish manbai bo'lib qoladi.

Kichik o'lchamdagi sil do'ngliklari kasallik avj olgan vaqtda yiriklashib ketadi, yallig'lanishning katta yuzalari shakllanadi, hattoki parchalanishlarning katta



bo'shliqlari hosil bo'lishi bilan o'pkalarning barcha maydonlarini emirilishigacha olib boradi.

Sil – sekin-asta rivojlanuvchi va uzoq vaqt davom etuvchi kasallik. Ammo o'tkir, tez rivojlanuvchi shakllari ham bo'lishi mumkin.

Kasallik o'z vaqtida aniqlanganda va to'g'ri davolanganda silning rivojlanishini eng erta bosqichlarda to'xtatish, o'pkalar va boshqa organlarning katta maydonlarini buzilishiga yo'l qo'ymasdan to'xtatish mumkin.

Erta aniqlanib, o'z vaqtida va to'g'ri davolanganda – kasallikning oqibati doimo ijobiy bo'ladi

***Sil bakteriyalari o'pkalarga tushganda ko'payishni boshlaydi, shunda yallig'lanish paydo bo'ladi. O'pkalarda do'ngliklar paydo bo'ladi, ularning emirilishi sodir bo'ladi va tarkibidagilar nafas olish yo'llariga tushib qoladi. Shu tarzda o'z tarkibida sil bakteriyalariga ega balg'am paydo bo'ladi va shu bilan yuqtirish va atrofdagi insonlarning kasallanish manbai bo'lib qoladi. Erta aniqlanib, o'z vaqtida va to'g'ri davolanganda – kasallikning oqibati doimo ijobiy bo'ladi.***

## **OIV bilan yashovchi insonlarda sil qanday rivojlanadi?**

Sil bakteriyalari bilan zararlangan insonlarning 90-95% o'z hayotlari davomida sil bilan kasallanmaydilar. Zararlangan insonlarning 5-10% esa mudrayotgan holatda bo'lgan sil bakteriyalari o'z soatlarini kutib turishibdi.



Immun tizimi sil infeksiyasini lokallashtirish holatida bo'lmaganda sil bakteriyalari (SB) tez rivojlanishni boshlaydi. Immun tizimi susaygan shaxslar kasallik rivojlanishining ancha



yuqori xavfiga duchor bo'ladilar. OIV-infektsiyasi natijasida immunitetning susayishi – zararlanishdan so'ng sil rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng ahamiyatli omildir.

OIV bilan zararlanganda silning rivojlanishi xavfi OIV bilan zararlanmagan insonlarga qaraganda 10 barobar yuqoriroq. OIV insonlarni infeksiyalar zararlashiga olib keladi, ular immun tizimi me'yordagi holatda odatda insonlarning organizmiga ta'sir o'tkazmaydi.

OIVni o'rganishda oxirgi ikki o'n yilliklar muvaffaqiyatlariga qaramay, insoniyatga OIV-infektsiya va u bilan bog'liq kasalliklar tarqalishini to'xtatish imkoni bo'lmadi. Sil OIV bilan kasallangan insonlar uchun juda ham xavfli. Butun dunyoda sil – OIV bilan zararlangan insonlar orasida o'limning etakchi sababchisi bo'lib qolmoqda.

***Immun tizimi sil infeksiyasini lokallashtirish holatida bo'lmaganda sil bakteriyalari (SB) tez rivojlanishni boshlaydi. Immun tizimi susaygan shaxslar kasallik rivojlanishining ancha yuqori xavfiga duchor bo'ladilar. OIV-infektsiyasi natijasida immunitetning susayishi – zararlanishdan so'ng sil rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng ahamiyatli omildir.***

## **OIV bilan yashovchi inson silga tekshiruvdan o'tishi kerakmi?**

Ha. Agar OIV-infeksiyali bemor silga yoki o'tgan davrda silga teri testi natijalari ijobiy bo'lmagan bo'lsa, unga tekshiruvdan o'tish zarur: tuberkulin sinamasini qo'yish va turar joyi bo'yicha silga qarshi dispanserda balg'amini tekshirtirish. Sil organizmning boshqa organlarida ham rivojlanishi mumkin bo'lganligi sababli boshqa testlar va tekshiruvlar ham o'tkazilishi mumkin.

Agar OIV-infeksiyali bemor silga salbiy natijaga ega bo'lsa, unga kamida bir yilda bir marotaba sil



bilan kasallanish xavfiga bog'liq holda muntazam ravishda tekshiruvdan o'tib turish kerak.

Agar bemor-ona ijobiy OIV-maqomiga ega va bola unga OIV tashxisi qo'yilgandan so'ng tug'ilgan bo'lsa, bolani ham u 9-12 oylik bo'lganida silga tekshirish zarur.

***Agar OIV-infektsiyali bemor silga yoki o'tgan davrda silga teri testi-ning natijasi ijobiy bo'lmagan bo'lsa, unga tuberkulin sinamasi qo'yish va turar joyi bo'yicha silga qarshi dispanserda balg'amini tekshirtirish zarur.***

### **Dori vositalari silning rivojlanishini oldini olishi mumkinmi?**

OIV-infektsiyali insonlarda silga qarshi dori vositalari kasallikni rivojlanishini oldini olishi mumkin.

OIV mavjud bo'lganda bemorga silga tekshiruvdan o'tish zarur. Faol sil bo'lmaganida 6 oylik muddatga izoniazid bilan profilaktik davolanish tayinlanadi.



Dori vositalari to'liq 6 oy davomida qabul qilinishi kerak, chunki sil qo'zg'atuvchisi juda sekin yo'qotiladi.

Homiladorlik davrida ham sil rivojlanishini oldini olish uchun silga qarshi dori vositalarini qabul qilish mumkin.

***OIV-infektsiyali insonlarda silga qarshi dori vositalari kasallikni rivojlanishini oldini olishi mumkin.***

## OIV bilan yashovchi insonlarda sil davolanishi mumkinmi?

Ha, mumkin, agar bemor shifokor – ftiziatrning hamma tavsiyalariga qat'iy rioya qilib borsa. OIV bo'lmagan bemorlarni davolash uchun qo'llaniluvchi dori vositalari, shu bilan birga, OIVga ijobiy maqomli bemorlarga ham qo'llanilishi mumkin.

Kasallik alomatlari dori vositalarini qabul qilishni boshlagandan so'ng bir necha hafta davomida g'oyib bo'lishi mumkin.

Sil mikroblari juda sekin yo'q qilinadi, davolash odatda uzoq davom etadi. Dori vositalarini nomuntazam, uzilishlar bilan qabul qilish silning turg'un shaklini rivojlantirishi mumkin.

Turg'un silni davolash juda murakkab va kamida 18-24 oy o'tkazilishi kerak. Shuning uchun, sil bilan kasallangan bemorlar, ularning qarindoshlari, barcha darajadagi tibbiyot xodimlari silni davolashda uzilishlarga yo'l qo'yish mumkin emasligini bilishlari shart.

***Sil bilan kasallangan bemorlar, ularning qarindoshlari, barcha darajadagi tibbiyot xodimlari silni davolashda uzilishlarga yo'l qo'yish mumkin emasligini bilishlari shart.***

### Silning alomatlari qanday?

Silning rivojlanishida quyidagi alomatlar paydo bo'ladi: yo'tal, quvvatsizlik, 37 – 37,5°S gacha tana haroratining ko'tarilishi, ko'p terlash, ko'krak qafasida og'riqlar, ishtahani pasayishi, vazni yo'qotish, charchash .

Silning bu alomatlariga insonlar ko'pincha katta ahamiyat bermaydilar va tibbiy yordamga murojaat qilmaydilar, yoki o'zlarini o'zlari davolash bilan shug'ullanadilar.

Keyinchalik barcha tavsiflab berilgan alomatlar kuchayib, ularga qon tuflash qo'shilishi mumkin.



Yo'tal – sil kasalligining eng ajralib turuvchi alomatidir. Agar u 2 haftadan ortiq davom etayotgan bo'lsa, albatta silga tekshiruvdan o'tishga yuborish kerak.

***Yo'tal – silning eng ajralib turuvchi alomatidir. Agar u 2 haftadan ortiq davom etayotgan bo'lsa, albatta silga tekshiruvdan o'tishga yuborish kerak.***

### **Sil qanchalik xavfli?**

Sil qo'zg'atuvchilari juda o'zgaruvchan va dori-darmonlarga turg'unlikka tez ega bo'ladilar, ularni nafaqat dori vositalari bilan yo'q qilish, balki aniqlash ham murakkab bo'ladi. Noto'g'ri davolash, davolashdagi uzilishlar, surunkali bemorlar bilan doimiy muloqotda bo'lishlik va boshqa sabablar natijasida sil (silga qarshi dori vositalarining ta'siriga turg'unlik) davolanishi juda qiyin bo'lgan surunkali shaklga o'tishi mumkin.

***Davolashdagi uzilishlar natijasida sil surunkali shaklga o'tib, davo muolajalari ijobiy natija bermaydi.***

### **Birlamchi tibbiy-sanitar yordam (BTSYO) darajasida silni aniqlash va tekshirish**

Zamonaviy bosqichda aholi o'rtasida o'pka silini erta aniqlash BTSYO muassasalarida umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda silga taxmin qilinayotgan shaxslarni tekshirayotganda klinik minimum aniqlab berilgan va u quyidagi usullardan tashkil topgan:

- alomatlarni klinik baholash;

- bakteriologik tekshiruv;
- nurli tekshiruv;
- tuberkulin sinamasi (bolalarda);
- silga ekspress - test.

Silni tekshirishning asosiy usuli sil mikobakteriyasini (SMB) aniqlashga balg'amni tekshirish bo'ladi.

Balg'amda SMB aniqlashning molekulyar-genetik usulidan biri GeneXpert MTB/RIFdir, u tezlikda bir vaqtning o'zida sil va rifampitsinga (Rif) turg'unlikni tekshiruvini ta'minlaydi.



GeneXpert MTB/RIF haqiqiy vaqtda *in vitro* o'tkazuvchi yarim miqdorli inli polimerazli zanjir reaksiya (PZR) usulini qo'llaydi. Tekshiruv jarayoni vaqt bo'yicha bor-yo'g'i 2 soatni egallaydi, usulning o'ziga xosligi 100% ga erishiladi, yuqori sezuvchan balg'amning surtmasi ijobiy bo'lgan bemorlar uchun – 98 % gacha. Bunday tekshiruv usulini o'tkazilishi minimal darajadagi ko'nikmalarni talab etadi va tekshiruv o'tkazish uchun alohida xona ajratilishini talab etmaydi.

GeneXpert MTB/RIF tizimi Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ma'qullangan va silni aniqlashning skrining testi sifatida barcha mamlakatlarda qo'llanilish uchun tavsiya etilgan.

***GeneXpert MTB/RIF tizimi Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ma'qullangan va silni aniqlashning skrining testi sifatida barcha mamlakatlarda qo'llanilish uchun tavsiya etilgan.***

**Sil bilan kurashish dasturida BTSYO tarmog'ining roli**

BTSYO tarmog'i tibbiyot xodimi majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- O'xshash alomatli bemorda silni shubha ostiga olish va tekshiruv algoritmi bo'yicha zaruriy choralarni o'z vaqtida amalga oshirish.
- Mikroskopik tadqiqot uchun tekshirish materialning (balg'amning) sifatli 2-ta namunasini yig'ilishini ta'minlash.
- Ko'krak qafasi organlarini rentgenologik tadqiqotini tayinlash.
- Silga shubha uyg'otgan bemorni tashxisni tasdiqlash va davolash uchun silga qarshi dispanserga yuborish.
- Silning alomatlari haqida, tibbiy yordam uchun o'z vaqtida murojaat etish haqida aholi o'rtasida sanitar-ma'rifiy ishlarni olib borish.



- Silga qarshi xizmat boshchiligi ostida ambulator bosqichda nazorat qilinuvchi davolashni amalga oshirish.
- Davolash jarayonida yozaga kelgan asoratlar yoki davolashni muddatidan oldin to'xtatish holati xaqida silga qarshi xizmatga zudlik bilan xabar berish.
- Me'yoriy hujjatlarga muvofiq "xavf guruhidan" shaxslarni kuzatib borish.

***BTSYO tarmog'ini tibbiyot xodimining me'yoriy hujjatlarga muvofiq eng muhim majburiyatlaridan biri "xavf guruhidagi" shaxslarni kuzatib borish kiradi.***

**Silni aniqlash va tekshirish bo'yicha umumiy qoidalar (BTSYO darajasi)**

O'pka silini aniqlashning asosiy usuli silga shubha qilingan shaxslarning

(klinik alomatlar va respirator shikoyatlar) tibbiy yordam uchun murojaat qilganlarida balg'amning bakteriologik tadqiqotidir. Bu maqsadda, bemorlarni ambulator qabul qilishni amalga oshiruvchi barcha BTSYO tibbiyot muassasalarida – poliklinikalarda, QOPlarda - balg'amni yig'ish joylari tashkillashtiriladi, ularning ish vaqti ambulator qabulning vaqti bilan mos kelishi kerak. Yotoq bemorlarda balg'amni yig'ish tibbiyot hamshirasi tomonidan uyda amalga oshiriladi.

***Barcha BTSYO tibbiyot muassasalarida – poliklinikalarda, QOPlarda - balg'amni yig'ish joylari tashkillashtiriladi.***

**Quyidagi shaxslarda silga balg'amni bakteriologik tekshirish lozim:**

- Tibbiyot muassasasiga ikki hafta vaqt davomidagi yo'talga shikoyat qilib murojaat etgan shaxslar. Yo'tal kasallikning mustaqil ko'rinishi bo'lishi yoki ko'krak qafasidagi og'riqlar, qon tuflash, tez-tez nafas olish, holsizlik, ko'p terlashlik, subfebril harorat kabi alomatlar bilan uyg'unlashuvi bo'lishi mumkin.
- Kasallikning muvofiq alomatlari mavjud bo'lgan sil bilan kasallangan bemorlar (balg'am ko'chib chiqishi, yo'tal) bilan aloqada bo'lgan shaxslar.
- Silga nisbatan shubha uyg'otgan o'pka maydonlaridagi rentgenologik o'zgarishlariga ega bo'lgan shaxslar.
- Nafas olish organlarining surunkali nospetsifik kasalliklari (zo'riqish davrida) bilan aziyat chekuvchi “xavf guruhi”dagi shaxslar.

***Ikki haftadan ortiq davomiy yo'talga shikoyat bilan tibbiyot muassasasiga murojaat qilgan shaxslar, silga balg'amni bakteriologik tekshiruvdan o'tishlari kerak bo'ladi.***

**Silga shubha uyg'otgan bemorni tekshirish**

Nafas olish organlari siliga shubhalangan bemor murojaat qilgan joy bo'yicha tibbiyot muassasasida bevosita tekshiriladi, bu erda nazorat

ostida ikki miqdordagi (birinchisi – murojaat qilgan vaqtida, ikkinchisi – yig'ilgani, iloji boricha, ertalabki vaqtdagi) balg'am yig'ish o'tkaziladi, keyinchalik uni maxsuslashtirilgan laboratoriyaga bakteriologik tadqiqot o'tkazilishi uchun yuboriladi. Muassasa muvofiq uskunalariga, o'qitilgan xodimlarga (BTSYO tibbiyot hamshirasi) va silning infeksiyon nazorati talablariga javob berishi kerak.

Kislotaga chidamli bakteriyalarga (KCHB) balg'amning ikki miqdoridan hech bo'lmaganda birida mikroskopik tadqiqotning natijasi ijobiy olinganda, bemorlar turar joyi bo'yicha silga qarshi muassasaga tekshiruvni davom ettirish uchun yuboriladilar.

KCHBga balg'amni bakteriologik tadqiqot natijalarining ikki karra salbiy bo'lganda, bemorlar ko'krak qafasi organlarining flyuorografiyasiga yoki rentgenografiyasiga yuboriladi. Keyingi taktika rentgenologik tadqiqotlarning natijalari bilan aniqlab beriladi. Miliar silga shubhalangan bemorlar zudlik bilan silga qarshi muassasaga yuboriladi, bronxitni yoki zotiljamni differentsial tekshiruvini o'tkazish zarurati tug'ilganda esa 2 hafta (14 kun) davomida antibiotiklarning keng ta'sir spektri test-terapiyasi tayinlanadi. Klinik-rentgenologik dinamikaning mavjud bo'lmaganida yoki jarayonning torpid kechishida bemor silga qarshi muassasaga yuboriladi.

***Nafas olish organlari siliga shubhalangan bemorlar murojaat qilgan joy bo'yicha bevosita tibbiy muassasada tekshiriladi.***

## **Silni qanday davolasa bo'ladi?**

Silning davosi bor.

Silni davolash uchun bemorga 4-5 silga qarshi dori vositalarini qabul qilish zarur bo'ladi. Silni davolash butun davr mobaynida nazorat qilib turilishi kerak, ya'ni tibbiyot xodimlari muntazam ravishda bemorlar dori vositalarini qabul qilayotganini nazorat ostida ushlab turishlari kerak. Bu muvaffaqiyatli davolash uchun asosiy sharoitdir, chunki ko'pchilik insonlar kerakli dori vositalarini o'z vaqtida qabul qilishni



unutib qo'yadilar.

Silni davolash uzoq vaqt, kamida 6-8 oy davomida bajariladi. Faqat shu davr ichida barcha sil bakteriyalarining yo'qotilishiga erishiladi. Nazoratsiz, noto'g'ri davolashda sil qiyin davolanuvchi kasallikka aylanishi va uni davolash vaqti 2 yilgacha davom etishi mumkin.



Sildan tuzalib ketish uchun bemorlarga quyidagilar zarur:

- Shifokorga o'z vaqtida murojaat qilish.
- Shifokor nazorati ostida davolash kursini to'liq o'tish.
- Shifokor tomonidan tayinlangan silga qarshi dori vositalarini qabul qilish va davolanishda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik.
- Shifokorning barcha ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish, chunki davolashning natijasi shunga bog'liq.

***Sil ko'pincha davolanadi!***

### **Silni davolash haqida nimalarni bilish zarur?**

Silni davolash 2 fazaga bo'linadi, ular orasida dori vositalarini qabul qilishni uzilishiga yo'l qo'yish mumkin emas.

Birinchi faza – bu intensiv davolash, bunda bemor silning sezuvchan shaklida 2-3 oy davomida 4-5 silga qarshi dori vositalarini va silning turg'un shaklida 8 oygacha 5-6 dori vositalarini qabul qilishi kerak.

Keyinchalik davolashning ikkinchi quvvatlab turuvchi fazasida silning sezuvchan shaklida 4-5 oy davomida yana 2-3 dori vositasini va silning



turg'un shaklida 12 oydan ortiq 3-4 dori vositasini qabul qilishni davom ettirish zarur.

Silni davolashda immunitetni mustahkamlash uchun har xil xalq tabobati vositalari: qimiz, tuya suti, asal, asalari elimi, yong'oqlar, dorivor o'simliklarni qo'llash mumkin. Ammo shuni yodda tutish kerakki, barcha

sanab o'tilganlar sil bakteriyalarini o'ldirmaydi, demak, asosiy davolash hisoblanmaydi.

Bundan tashqari, kasallikning erta bosqichlarida ba'zi vositalar jarayonlarning generalizatsiyalanishiga turtki bo'lishi mumkin. Shuning uchun, xalq tabobati usullarini ehtiyotkorlik bilan va faqat ftiziatr bilan maslahatlashgandan so'ng qo'llash mumkin.

***Silni davolash 2 fazaga bo'linadi, ular orasida dori vositalarini qabul qilishni uzilishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Xalq tabobati usullarini ehtiyotkorlik bilan va faqat ftiziatr bilan maslahatlashgandan so'ng qo'llash mumkin.***

## **OIV-infektsiyali bemorlarda silning o'tish xususiyatlari**

Silning o'tishi OIVda immuntanqislikning bosqichi va darajasiga bog'liqdir. Boshlang'ich bosqichlarda engil yoki mo'tadil immuntanqisligida sil rivojlanadi, u odatdagi sildan kam tomonlari bilan farq qiladi. Immunitetning pasayib borishi odatda o'pka sili va o'pkadan tashqaridagi sil rivojlanishiga olib keladi. Hammasidan ham ko'proq bular qatoriga zotiljam, limfadenopatiya, perikardit, milliar sili, meningit va tarqalgan sil kiradi.

OIV infektsiyasi – sil kasalligini xavfini oshiruvchi eng asosiy omildir.

***OIV infeksiyasi – sil kasalligini xavfni oshiruvchi eng asosiy omildir.***

## **Silni davolashda paydo bo'luvchi nojo'ya ta'sirlar**

Sil bilan kasallangan bemorlarning birinchi aniqlangan 5-10 % da davolash vaqtida silga qarshi dori vositalariga quyidagi nojo'ya ta'sirlar paydo bo'lishi mumkin:

ishtahani yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qusish, teri qichishishi, qorindagi og'riqlar, ko'zning oq pardasi va terining sarg'ayishi, bo'g'implardagi og'riqlar, quloqlardagi shovqin, harakatlanish beqarorligi, ko'rish qobiliyatini buzilishi.

Amaldagi barcha sanab o'tilgan alomatlar bartaraf etilishi mumkin va asosiy davolashni bekor qilishni talab etmaydi. Bu o'zgarishlar haqida bemor o'zining davolovchi shifokoriga xabar berishi kerak.

Silga qarshi dori vositalarini ularga yuqori sezuvchanlik natijasida asoslanmagan bekor qilinishi sil bakteriyalarining multirezistentligining (turg'unligining) rivojlanishiga va kasallikning qiyin davolanuvchi surunkali shakllariga olib kelishi mumkin.

***Silni davolashda paydo bo'luvchi amaldagi barcha alomatlar bartaraf etilishi mumkin va asosiy davolashni bekor qilishni talab etmaydi. Bu o'zgarishlar haqida bemor o'zining davolovchi shifokoriga xabar berishi kerak.***

## **Silni nazoratsiz, noto'g'ri davolash nimasi bilan xavfli?**

Silni noto'g'ri davolash natijasida, asosan silga qarshi dori vositalarini qabul qilishdagi uzilishlar tufayli kasallik ko'pincha qiyin davolanadi. Uning ancha xavfli bo'lgan shakllari – **miqdori ko'p dori vositalariga**



**turg'un sil (MDT-sil)**, bunda sil bakteriyalari asosiy silga qarshi dori vositalari (minimum rifampitsinga va izoniazidga) ta'siriga bardoshli bo'lib qoladi va **keng dori vositalariga turg'un sil (KDT-sil)** har qanday ftorxinolga va ikkinchi qator silga qarshi in'eksion dori vositalarining uchtasidan biriga qo'shimcha turg'unlikka aylanadi.

Miqdori ko'p dori vositalariga turg'un silni davolash juda murakkab va 18-24 oy davomida o'tkaziladi, ya'ni silning sezuvchan shaklini davolashga qaraganda 3-4 marotaba ko'proq.



Shuning uchun, sil bilan kasallanganlar, ularning qarindoshlari va barcha darajadagi tibbiyot xodimlari silni davolashda juda puxta bo'lishi kerak. Davolash vaqtida hech qanday tanaffuslarga yo'l qo'yilmaslik kerakligini bilishlari shart.

***Silni noto'g'ri davolash natijasida, asosan silga qarshi dori vositalarini qabul qilishdagi uzilishlar tufayli kasallik ko'pincha qiyin davolanadi. Shuning uchun, sil bilan kasallanganlar, ularning qarindoshlari va barcha darajadagi tibbiyot xodimlari silni davolashda juda puxta bo'lishi va davolash vaqtida hech qanday tanaffuslarga yo'l qo'yilmaslik kerakligini bilishlari shart.***

### **Silni davolashning sharoitlari**

Bemorning holatiga, kasallikning tarqalganligiga va og'irligiga bog'liq holda silni davolash ambulator yoki statsionar sharoitida bo'lishi mumkin.

Ambulator davolash uyda o'tkazilishi yoki bemorlarning o'zlari davolash muassasasiga kelib davolanishlari mumkin.

Statsionar davolash bemorni shifoxonaga joylashtirish bilan amalga oshiriladi.

***Silni davolash ambulator yoki statsionar sharoitida bo'lishi mumkin.***

## **Bemorlar uchun silni ambulator davolashning afzalliklari**

O'zbekistonda silni ambulator davolash bo'yicha mavjud bo'lgan tajribasiga asosan quyidagi xulosalar qilingan:

- Ambulator davolashning jadal bosqichidan o'tgan silning turg'un shakliga ega bo'lgan bemorlarning davolash natijalari shifoxonaga joylashtirilgan bemorlarning davolash natijalari bilan o'xshashdir.
- Ambulator davolanayotgan bemorlarda dori vositalariga nojo'ya ta'sirlar shifoxonaga yotqizilganlarga qaraganda kamroq aniqlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, statsionar bosqichdagi nojo'ya ta'sirlarning paydo bo'lishida bemorga ko'rsatiluvchi xizmatlarning sifati, bepul laborator xizmatlar va tor mutaxassis-shifokorlarning maslahatlari kabi ham yuqori.
- Davolashning ambulator modeli bemorlar uchun ancha qulay.
- Davolashning ambulator modeli statsionarga qaraganda arzonroq.



***Davolashning ambulator modeli bemorlar uchun ancha qulay va statsionar davolashdan arzonroq bo'ladi.***

**Sil bilan kasallangan bemorlarni uyda davolashda nimalar zarur?**

Davolashning erta bosqichlarida sil bilan kasallangan bemorlarni ambulator davolash imkoniyatlarini ta'minlashning quyidagi bir qator ob'ektiv omillari mavjud:

- Silni davolashga sodiqlik.
- Alohida xonaning mavjud bo'lishi.
- Ushbu o'choqda 18 yoshga to'lmagan bolalarning, homilador ayollarning va katta yoshdagi odamlarning bo'lmasligi.
- Infektsion nazorat choralariga xonada rioya etilishi.
- Bemorni parvarish qilayotgan shaxsning mavjudligi.
- Bemorni uyda davolash uchun silga qarshi dori vositalarini muntazam, uzluksiz keltirilishi.
- Uchastka shifokori tomonidan bemorni bir oyda 2 martadan kam bo'lmagan, ftziatr tomonidan esa bir oyda 1 marotabadan kam bo'lmagan doimiy ko'rigi va maslahatlari.
- Bemorda sil bakteriyalari ajralib chiqish davrida tibbiyot/parvarishlovchi xodimlarida respiratorning mavjudligi, uning to'g'ri ishlatilishi va bemorning o'zi ham niqobchadan foydalanishi zarur.

***Davolashning erta bosqichlarida sil bilan kasallangan bemorlarni ambulator davolash imkoniyatlarini ta'minlashning bir qator ob'ektiv omillari mavjud.***

## **Silda ovqatlanish**

Sil bilan kasallangan bemorning ovqatlanish ratsionida oqsilga boy mahsulotlar va vitaminlar etarlicha miqdorda bo'lishi kerak. Ovqatlanishda sut mahsulotlari, sabzavotlar va mevalar, har xil sharbatlarni iste'mol qilish zarur.

Sil bilan kasallangan bemorlarning uyqu va dam olishlariga etarlicha vaqt ajratilganda tezda tuzalib ketadilar (kuniga 8-10 soat). Toza havoda uzoq vaqt davom etmaydigan sayrlar tavsiya etiladi.

Davolashning ikkinchi fazasida kuchi etadigan engil mehnatni bajarish mumkin. Sog'lom turmush tarzi – bu silni profilaktikasi va uning retsivlarini muvaffaqiyatli davolash kafolatidir.



***Sog'lom turmush tarzi – bu silni profilaktikasi va uning retsivlarini muvaffaqiyatli davolash kafolatidir.***

### **Silni davolashda mehnat va dam olish tartibi**

Sil bilan kasallangan bemorga tez tuzalib ketishi uchun uzaytirilgan uyqu, barqarorlashtirilgan kun tartibi zarur, bunda uning organizmi uchun qulay holat ta'minlanadi.

To'g'ri tartibni o'rnatish uchun bemorga uzaytirilgan uyqu, kun davomida minimum ikki soatli dam olish, iloji boricha toza havoda vaqt o'tkazish: uzoq vaqt bo'lmagan sayrlar, ochiq ayvonda yotish, havo vannalarini qabul qilish shart.

Bemor yuqumsiz bo'lib qolganidan so'ng u engil, kuchi etadigan mehnat bilan shug'ullanishi mumkin. Ish quyidagicha bo'lishi kerak:

- charchatmaydigan;
- zararli bo'lgan ishlab chiqarishda emas;
- katta jismoniy yuklanishsiz;
- quruq, iliq, yaxshi shamollatib turiluvchi xonalarda;
- uyquni buzmasdan (ya'ni kunlik navbatchiliklarsiz);
- ovqatlanish imkoniyati bilan.

***To'g'ri tartibni o'rnatish uchun bemorga uzaytirilgan uyqu, kun davomida kamida ikki soatli dam olish, iloji boricha toza havoda vaqt o'tkazishi tavsiya qilinadi.***

## Sildan davolangandan so'ng bemorlarning reabilitatsiyasi

Silni o'tkazgan inson birinchi galda o'zining turmush tarzini o'zgartirishi lozim. Agar uning faoliyati zararli mehnat sharoitlari bilan, kirlangan xonalarda muntazam bo'lishliklarga bog'liq bo'lsa, u holda bunday ishni almashtirish kerak. Tungi dam olish vaqtini 8-9 soatgacha oshirish, kunlik tartibga 2-soatlik kunduzgi uyquni kiritish, jismoniy yuklanishni cheklash, har kuni toza havoda bo'lish, stressli vaziyatlardan naribroq bo'lish kerak.



Nafas olish yo'llarini shamollash kasalliklaridan himoyalash uchun chekishni tashlash va organizmni asta-sekin chiniqtirishni boshlash kerak. Biroq, uzoq vaqt ochiq quyoshda bo'lish taqiqlanadi, chunki kuydiruvchi nurlar yallig'lanish jarayonini

qo'zg'atishi mumkin. Toza havoda yayov sayrlar, engil gimnastika, suzish tavsiya etiladi.

Reabilitatsion davrning muhim qismi dietoterapiya bo'ladi, shuning uchun bemor tayinlangan ovqatlanish tartibiga so'zsiz rioya qilishi kerak. Ovqatlanishda engil hazm bo'luvchi oqsillarni ularning organizmdan sezilarli yo'qolganligi bois iste'mol qilinishi ustunlikka ega. Oqsil shikastlangan o'choqdagi to'qimalarni tiklanishiga yordam beradi, kasallik davrida sarf qilingan quvvatni to'ldiradi. Bir vaqtning o'zida yog'larni (ayniqsa hayvoniy yog'larni) va uglevodlarni iste'mol qilinishini cheklash talab etiladi.

### Kasallikdan so'ng reabilitatsiya qoidalari:

- Mehnat va dam olishning eng maqbul tartibi;
- Jismoniy yuklanishni chegaralash;



- Toza havoda ko'proq vaqt o'tkazish;
- Stress holatlarining mavjud bo'lmashligi;
- Organizmni asta-sekin chiniqtirish;
- Dietoterapiya.

***Reabilitatsion davrning muhim qismi dietoterapiya bo'ladi. Ovqatlanishda engil hazm bo'luvchi oqsillarni iste'mol qilinishi ustunlikka ega.***

## **Sil bilan kasallangan bemor tomonidan rioya etilishi uchun zarur bo'lgan qoidalar**

Sil bilan kasallangan bemorlar atrofni o'rab turgan insonlarga yuqtirmaslikni oldini olish bo'yicha tadbirlarni bajarishlari zarur. Eng muhimi shifokor tomonidan tayinlangan muddatgacha uzluksiz davolanish bo'ladi.

Yo'talganda va aksirganda og'izni salfetka bilan yopish kerak, keyinchalik u dezinfektsiyalanadi yoki yo'q qilib tashlanadi. Sil bilan kasallangan bemorlar boshqa insonlar, ayniqsa bolalar bilan, muloqotni cheklashlari kerak, toki balg'am bilan sil bakteriyalarini ajralib chiqishi turg'un to'xtagunicha (balg'am tekshiruvlari salbiy bo'lib qolishi kerak).



Sil bilan kasallangan bemorlar joylashgan xona (palata) tez-tez shamollatib turilishi kerak. Bu tadbirlar oila a'zolarini, ayniqsa bolalarni, hamda qarindoshlarni, do'stlarni, hamkasblarni va jamiyatning boshqa a'zolarini silni yuqtirishlari va kasallanishlaridan samarali himoya qiladi.

***Yo'talganda va aksirganda og'izni salfetka bilan yopish kerak, keyinchalik u dezinfektsiyalanadi yoki yo'q qilib tashlanadi.***

## **Agar bemorning qarindoshi sil bilan kasallangan bo'lsa**

Agar bemorning oila a'zolaridan biror biriga “sil” tashxisini qo'yishgan bo'lsa, bu infeksiyadan qolganlarni, ayniqsa bolalarni, saqlab qolish muhimdir. Avvalambor xonada dezinfeksiyani o'tkazish zarur. So'ngra, sog'lom insonlarni zararlanishini oldini olish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Bemorga alohida sochiq, bo'lak sovun va tish chyotkasini ajratish, ustiga-ustak ularning barchasi boshqa anjomlardan alohida izolyatsiyalangan bo'lishi kerak. Uning uchun idishlar jamlanmasi xuddi shunday tarzda alohida bo'lishi kerak. Kirlangan likobchalarni, finjonlarni va qoshiqlarning ustidan avvalambor qaynoq suv quyiladi va so'ngra ular yuviladi.

Xonani muntazam shamollatish, kunora nam yig'ishtirish va uyni o'ta toza holatda ushlab turish katta ahamiyatga ega. Bemor bilan yaqinlikda yashovchilarning barchasi tizimli tekshiruvlardan o'tib turishlari zarur. Bunda shuni yodda tutish lozimki, faqat ochiq shakldagi sil bilan kasallangan insonlar bakteriyalarni ajratib chiqaradi. Agar davolash muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa va kasallik yopiq shaklga o'tgan bo'lsa, yuqish amalga oshmaydi.

***Faqat ochiq shakldagi sil bilan kasallangan insonlar bakteriyalarni ajratib chiqaradi. Agar davolash muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa va kasallik yopiq shaklga o'tgan bo'lsa, yuqish amalga oshmaydi.***

## **Silni davolashning to'liq kursini yakunlagandan so'ng bemor nimalarni bilishi zarur?**

Sil bakteriyalarining ajralib chiqilishi uzoq vaqt kechadi, turg'un yakunlanish kuzatilganda davolanish samarali hisoblanadi, ya'ni balg'amning mikroskopik tekshiruv natijalari manfiy bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlarda shifokor sildan davolanganlikni o'rnatadi va inson o'z yaqinlarini va atrofdagilarni sil bilan zararlashdan qo'rqmasdan odatiy yashash tarzini davom ettirishi mumkin.

Nomaqbul faktorlarda (yomon ovqatlanish, tez-tez sovuq qotish, charchoq, alkogolni suiiste'mol qilish, narkotik moddalarini qabul qilish va boshqalar) insonlarning 2-3% da sil qayta paydo bo'lishi mumkin.



Shuning uchun, sil bilan kasallanib chiqqan barcha insonlar yo'tal va boshqa alomatlar takroran paydo bo'lganligini sezganlarida, silga mikroskopik tadqiqot uchun balg'amni topshirishlari zarur.

Sog'lom turmush tarzi eng yaxshi profilaktika va silni muvaffaqiyatli davolashning kafolati ekanligini ham yodda tutish muhimdir.

***Nomaqbul holatlarda 2-3% odamlarda sil qayta vujudga kelishi mumkin. Yo'tal va boshqa alomatlar qayta paydo bo'lganda, silga mikroskopik tekshirish uchun balg'amni topshirish zarur.***

## **Sil bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam haqida bemorlar Xartiyasi**

Bemorlar Xartiyasi – sil bilan kasallangan insonlarning huquq va majburiyatlari tavsiflab berilgan hujjat.

Shu bilimlarga ega bo'lganlik sharofati bilan shu kasallik bilan kasallangan insonlar va ularning jamoalari o'zlarining imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Dunyoning har tomonidagi bemorlarning tashabbusi bo'yicha ishlab chiqilgan Xartiya tibbiyot xizmatlarini



ta'minlovchilar bilan munosabatlarni o'zaro foydali qilmoqda.

### **Sil bilan kasallangan bemorlarning huquqlari**

Xartiyaga muvofiq sil bilan kasallangan bemorlar o'z huquqlariga egadirlar, quyidagilar ularning qatoriga kiradi:

- Resurslarga, irqqa, yoshga, tilga, yuridik maqomiga, e'tiqodiga, madaniyatiga yoki boshqa kasallikning borligiga bog'liq bo'lmagan tashxisdan davolashni yakunlaguncha silga qarshi yordamga erkin va teng huquqli erishish huquqi.
- Hurmat va qadr-qimmatni saqlab, sog'liqni saqlash va ma'muriyat xodimlari tomonidan tamg'asiz, soxta fikrlarsiz yoki kamsitishsiz davolanishga huquq.
- Tibbiy holat, tashxis, prognoz (kasallikning kelajakdagi rivojlanish ehtimoliga nisbatan fikr), taklif etilgan davolash, umumiy xavflar va ehtimolli alternativalarining o'z vaqtida, qisqa va tushunarli tushuntirishlarga huquq.
- Oldingi tibbiy hujjatlarga erishish bilan ikkinchi tibbiy fikrga huquq.
- Faqat bemor bilan kelishuvdan so'ng boshqa instantsiyalarga tibbiy holatga taalluqli sirli ma'lumotlarni berish huquqi.
- Tekshiruvdan yoki davolashdan va muvofiq tiklanishdan so'ng ishni saqlab qolish huquqi.

### **Sil bilan kasallangan bemorlarning majburiyatlari**

Xartiyaga muvofiq bemorlar huquqlar bilan birga majburiyatlarga ham egadirlar, quyidagilar ularning qatoriga kiradi:

- Oilaviy aloqalar, yaqin do'stlar bilan aloqalar va zararlangan insonlar bilan aloqalar xususida sog'liqni saqlash xodimlariga ma'lumotlarni taqdim etish.
- Davolashning tayinlangan va kelishilgan rejasi va sxemasiga rioya

qilish, bemorni va uni atrofdagilarni sog'lig'ini himoyalashga yo'naltirilgan yo'riqnomalarni sidqidildan bajarish.

- Mukofotlash, tushuntirish va tavsiya qilish yo'llari bilan sil alomatlari aniqlangan shaxslarni sog'liqni saqlash tizimiga jalb etishga yordam berish.
- Boshqa bemorlarga va sog'liqni saqlash xodimlariga, bu silga qarshi Uyushmaning muhim va munosib asosi ekanligini tushunib etib, axborot berish va huquqlarini tushuntirish.
- Davolanishga birgalikda intilish uchun birdamlikka va boshqa bemorlarga yordam berishga ma'naviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.
- Jamiyatni sil yukidan ozod qilishga kuchlarni sarf qilish va boshqalar.

***Bemorlar Xartiyasi – sil bilan kasallangan insonlarning huquq va majburiyatlari tavsiflab berilgan hujjat.***

## **BSST ning “Silni yo'q qilish” strategiyasi**

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va sil va o'pka kasalliklari bilan kurashishning Xalqaro ittifoqi sil bilan kurashishda “Silni yo'q qilish” strategiyasini qo'llashni tavsiya etadi, u tibbiyot va ma'muriy tadbirlarning kompleks tizimi bo'ladi.



### **Strategiya maqsadi:**

Silning global epidemiyasini to'xtatish.

### **Maqsadli ko'rsatkichlar:**

- 2015 yil bilan solishtirilganda 2035 yilga kelib sildan o'lim miqdorini

95% ga pasaytirish.

- 2015 yil bilan solishtirilganda 2035 yilga kelib sil bilan kasallanish ko'rsatkichini 90% ga pasaytirish.
- Sil bilan kasallangan bemorlari bo'lgan oilalardan birortasi ham 2035 yilga kelib katta xarajatlarga ega bo'lmasligi kerak.

### **Strategiya tamoyillari:**

- Davlat tomonidan rahbarlik qilish va mas'uliyat, monitoring va baholashni o'tkazish.
- Fuqarolik jamiyatlari va mahalliy aholi o'rtasida chambarchas hamkorlik.
- Inson huquqlari, odob-axloq me'yorlari va haqqoniylik tamoyilining himoyalaniishi va ularga rioya etilishi.
- Global hamkorlikda mamlakat darajasida strategiya va vazifalarning moslashishi.

### **Strategiyaning asosiy elementlari va tarkibiy qismlari:**

- Bemorga yo'naltirilgan kompleks davolash va profilaktika.
  - o Silni boshidanoq aniqlash, shu qatorda dori vositalarga sezuvchanlikka umumiy testni o'tkazib, aloqada bo'lgan va "yuqori xavflilik guruhidagi" shaxslarni tizimli tekshirish.
  - o Sil bilan kasallangan hamma shaxslarni davolash, shu qatorda dori vositasiga turg'un sil va bemorlarni qo'llab-quvvatlash.
  - o Sil/OIV bilan kurashishning hamkorlikdagi choralari va birgalikda kechuvchi kasalliklarni olib borish.
  - o Yuqori xavf ta'siri ostiga tushib qoluvchi shaxslarni profilaktik davolash va silga qarshi emlash.
- Kuchli siyosat va qo'llab-quvvatlovchi tizim.

- o Silni davolash va profilaktikasi uchun adekvat resurslar bilan siyosiy qo'llab-quvvatlash.
  - o Fuqarolik jamiyatining jamoalari, tashkilotlarini hamda yordam beruvchi davlat va xususiy etkazib beruvchilarning ishtiroki.
  - o Sog'liqni saqlash xizmatlarini umumiy qamrab olish siyosati va kasallanish hodisalari haqida xabarlash uchun me'yoriy-huquqiy baza, fuqarolik holatini qayd qilish, dori vositalarini sifati va foydali ishlatilishi, hamda infeksiyon nazoratni ta'minlash.
  - o Ijtimoiy himoya, qashshoqlik bilan kurashish va silning boshqa determinantlariga ta'sir o'tkazish.
- Tadqiqotlar va innovatsiyalarni jadallashtirish.
    - o Yangi vositalar, amaliy choralar va strategiyalarni ochish, ishlab chiqish va tezkor tadbiq etish.
    - o Amalga oshirish va ta'sir etishni optimallashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalarga yordam berish.

***Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Sil va o'pka kasalliklari bilan kurashish Xalqaro ittifoqi sil bilan kurashishda "Silni yo'q qilish" strategiyasini qabul qilishni tavsiya etadilar.***

**Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya  
ilmiy- amaliy tibbiyot markazi**

Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Alimova ko'chasi, 1. Indeks: 100086

Telefon: +998 (71) 278-04-70 / +998 (71) 278-15-28,

Faks: +998 (71) 278-04-70

---

Muharrir: D.Sagatova

Kompyuterda tayyorlovchi: MCHJ «PREMIER PRINT»

Nashriyot licenziyasi AI № 263 31.12.2014

Bosishga ruxsat etildi 00.00.2018 й. Bichimi 60x90 1/16

«Calibri» garniturasida. Ofset usulida bosildi.

Bosma tabog'i 1,75.

Adadi 500 nusxa

«BAKTRIA PRESS» MCHJ Nashriyot uyi

100000, Toshkent, Buyuk Ipak Yo'li mavzesi, 15-25

Tel.: +998 (71) 233-23-84

MCHJ «PREMIER PRINT» bosmaxonasida chop etildi

UO'K 616-002.5

KBK 55.4

Sil haqida nimalarni bilish kerak?

Umumiy amaliyot shifokorlari uchun  
axborot materiallari

Toshkent: Baktريا press, 2018. - 28 b.

ISBN 978-9943-5092-9-0

© RIFPIATM, 2018

© Baktريا press, 2018